

**ASORATLI XIRURGIK KASALLIKLARDA ENDOLIMFATIK
TERAPIYA AHAMIYATI**
**Abdullayeva Muattar, 308-guruh, Tibbiy pedagogika va davolash ishi
fakulteti**
Ilmiy raxbar: dotsent Ashurmetov A.M.
ToshPTI, Umumiy xirurgiya kafedrası

Dolzarbligi. Yiringli septik asoratlar muammosining dolzarbligi uning sezilarli chastotasi va yuqori o'lim darajasi bilan belgilanadi. O'lim chastotasi 25-30% (Shurkalin B.K. (2010) Savelev V.S. (2018)).

Maqsad va vazifalar. Endolimfatik antibiotikoterapiya usulini trivial usullar bilan qiyosiy baholash. Kasallikning dinamikasini, shuningdek biokimyoviy, gemodinamik, immunologik ko'rsatkichlarni baholash.

Tadqiqot materiallari va usullari. Ushbu ishda 25 nafar bemor 2 guruhga bo'lingan. Asosiy guruhdagi 13 nafar bemorda endolimfatik antibiotik terapiyasi organizmning umumiy infuzion detoksifikatsiyasi fonida amalga oshirildi. Immunologik, biokimyoviy, gemodinamik ko'rsatkichlar o'rganildi. Nazorat guruhining 12 nafar bemorida asosiy guruh bilan taqqoslash uchun retrospektiv tahlil o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari. 1 kunda asosiy guruhda limfotsitlar soni, t-Xelperlar va t- supressorlar fraksiyasi, CD2+, CD4+ CD8+ (boshlang'ich qiymatlarga nisbatan $36,7 \pm 1,5$ ($p < 0,01$), immunosuppressiv holat haqida ma'lumot beradi. Davolashning 7-kunida immunoregulyatsion indeks ko'tarila boshladi va $14,5 \pm 1,5\%$ ga etdi, nazorat guruhida bu ko'rsatkichlar deyarli o'zgarishsiz qoldi. 7 kunlik qonning umumiy biokimyoviy ko'rsatkichlari ham normallasha boshladi. 2-3 kunda ichak peristaltikasi paydo bo'ldi, gazlarning chiqishi, axlat, bu tabiiy ravishda bemorlarning umumiy holatiga ta'sir ko'rsatdi. Nazorat guruhida yaxshilanish holati 4-5 kunga to'g'ri keladi va 6 nafar bemorda sekin septik jarayonni hisobga olgan holda takroriy relaprotomiya o'tkaziladi.

Tadqiqot muhokamasi. Bizning fikrimizcha, limfatik yo'llar orqali davolanish mikrosirkulyatsiya kanaliga bevosita ta'sir ko'rsatadi, bu yerda septik jarayonlarda patogen omil ta'siri ostida stazgacha mikrolimfosirkulyatsiya buzilishida chuqur o'zgarishlar yuz beradi. Ushbu jarayonlar mikrosirkulyatsiya kanaliga patogenetik ta'sir ko'rsatish yo'li bilan hal qilinadi, bu esa interstitsial bo'shliqning limfa oqimini yaxshilanishiga olib keladi.

Xulosa. Yiringli-septik jarayonlarda endolimfatik antibiotik terapiyadan foydalanish bemorlarning umumiy holatini yaxshilashga imkon beradi, shuningdek immunologik, gemodinamik, biokimyoviy ko'rsatkichlarni trivial davolash usullariga qaraganda erta tiklanishga olib keladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Хайдаров, М., И. Маматкулов, Н. Зокирова, и М. Толипов. «Осложнения инфузионной терапии в реанимации и интенсивной терапии», in Library, т. 22, вып. 1, март 2021 г., сс. 120- 5, <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/18898>.
2. Нечунаева, Екатерина Владимировна, et al. "Иммуно-биохимические показатели в ранней диагностике хронической ишемии головного мозга." Бюллетень сибирской медицины 10.2 (2011): 142-146.
3. Мищенко, Т. С., et al. "Новые возможности в патогенетической терапии хронической ишемии головного мозга." Международный неврологический журнал 1 (2011): 37-42.